# 2021- yil yanvar - aprel oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-aprel oylarida Samarqand viloyatida jami 1 878,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi.




## 2021- yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

## 2021- yil yanvar-aprel oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi




### Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- may holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,3 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,2 mingtani tashkil etib, o‘tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 333 taga ko‘paygan.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi 7,1 martaga ko‘payib (jami qurilishdagi ulushi 56,2 **%)**ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 69,4 **%** ni tashkil etdi.

## Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | Holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, (+,-) |
|---|---|---|---|
| | 01.05.2020- yil | 01.05.2021- yil | |
| **Samarqand viloyati** | **2 818** | **3 151** | 333 |
| Samarqand sh. | 1 012 | 1 087 | 75 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 88 | 106 | 18 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 114 | 146 | 32 |
| Bulung‘ur | 59 | 68 | 9 |
| Jomboy | 105 | 123 | 18 |
| Ishtixon | 139 | 142 | 3 |
| Kattaqo‘rg‘on | 111 | 126 | 15 |
| Qo‘shrabot | 65 | 75 | 10 |
| Narpay | 76 | 81 | 5 |
| Payariq | 220 | 270 | 50 |
| Pastdarg‘om | 290 | 312 | 22 |
| Paxtachi | 59 | 67 | 8 |
| Samarqand | 116 | 140 | 24 |
| Nurobod | 42 | 53 | 11 |
| Urgut | 206 | 221 | 15 |
| Toyloq | 116 | 134 | 18 |



## Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.05.2021- yil holatiga






***Ma’lumot uchun****:* *Viloyatda qurilish korxonalari soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan hududlar Samarqand shahri (34,5 %), Pastdarg‘om (9,9 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.*

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **227,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 141,0 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan **3,2 %** punktga ko‘paygan.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




***Ma’lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,3** %i yoki 2020- yilning yanvar-aprel olyariga nisbatan **27,7** %ni), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **57,1** %i), Kattaqo‘rg‘on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,6** %i), Bulung‘ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,2** %i), va Pastdarg‘om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **11,9**%) tumanlarga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **71,5 %i** bajarilib, 2020- yilning yanvar-aprel oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **0,1 %** punktga ko’paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **104,2 %** ni tashkil etgan holda **1 343,1** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **16,4** % ni tashkil etib, **308,2** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **83,6** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi %da** | **mlrd. so‘m**







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **70,9** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,9** martaga ko‘payib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 807,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **103,6 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **96,2 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2021- yil yanvar-aprel***

**68,7 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo‘yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,7 %** yoki **1 290,8** mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**16,5**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **213,7** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,5 %** ni tashkil etdi.

**60,0 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **773,9** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **60,0 %** ni tashkil etdi.

**23,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **303,2** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **23,5 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-aprel oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, %da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **1 878,4** | **103,4** | **1290,8** |
| Samarqand sh. | 707,5 | 102,7 | 469,2 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 35,5 | 113,3 | 28,3 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 112,2 | 81,8 | 110,0 |
| Bulung‘ur | 36,5 | 110,7 | 31,5 |
| Jomboy | 80 | 100,9 | 65,0 |
| Ishtixon | 83,2 | 102,1 | 65,6 |
| Kattaqo‘rg‘on | 47,2 | 101,5 | 41,2 |
| Qo‘shrabot | 37,8 | 103,7 | 32,0 |
| Narpay | 47,5 | 101,5 | 40,8 |
| Payariq | 126,7 | 103,6 | 89,6 |
| Pastdarg‘om | 128 | 103,5 | 60,8 |
| Paxtachi | 48,6 | 101,2 | 30,8 |
| Samarqand | 98,5 | 103,6 | 58,7 |
| Nurobod | 21,5 | 106,8 | 15,3 |
| Urgut | 109 | 100,4 | 73,0 |
| Toyloq | 158,7 | 135,4 | 79,0 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

# Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari,%da

## 2020- yil yanvar-aprel

**17,6**
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**9,0**
Fuqarolik obyektlarini qurish

**73,3**
Bino va inshootlarni qurish

## 2021- yil yanvar-aprel

**3,1**
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**56,2**
Fuqarolik obyektlarini qurish

**40,7**
Bino va inshootlarni qurish

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi %da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **23,5 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamayib, **52,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko‘payib, **24,0 %** ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,6 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **69,4 %** **(4,5 %** punktga ko‘paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %**ni **(0,1 %** punktga ko‘paydi) tashkil etdi.





# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **13,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **1,4 %** punktga kamaydi. **86,6 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** punktga ko‘paydi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-aprel oylarida

## Eng yuqori hajm

*(mlrd. so‘m)*

1. Samarqand sh. 707,5
2. Toyloq 158,7
3. Payariq 126,7

## Eng kichik hajm

*(mlrd. so‘m)*

1. Nurobod 21,5
2. Kattaqo‘rg‘on sh. 35,5
3. Bulung’ur 36,5

Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*